There is another side of communication, in which it is about how close we direct the interlocutor to ourselves during a conversation or we ourselves approach. Every society has a certain concept of personal space, which is a convenient, comfortable distance for conversation, and everyone knows and follows it[3]. But problems can arise when people from different cultures meet. For example, in Western Europe, a comfortable conversation distance is 1.5 meters, and in some eastern countries and Uzbekistan this distance is even less. An Englishman and an Arab may feel uncomfortable during a conversation due to the fact that they do not know each other's traditions. If an Englishman is uncomfortable when his interlocutor is too close, it seems to an Arab that the interlocutor does not want to talk to him when he is far away. Knowing and understanding such differences will not allow them to get into an awkward situation.

To date, the influence of a number of other variables on the change in the proxemic characteristics of communication and non-verbal behavior of a person is also known. The above cases are studied by a special branch of psychology - proxemics. The founder of this trend was the American E. Hall, who himself called proxemics “spatial psychology”. For example, he determined the characteristics of the spatial location of the interlocutor in relation to the partner, characteristic of the inhabitants of the United States - distance, by determining the average value of spatial



convergence depending on various conditions and forms of communication. That is, the nature of interactions and relationships between people determines some optimal distances between them[4]. E. Hall distinguishes three levels of proxemic behavior: the first level stems from the phylogenetic past of people (territoriality of people, the phenomenon of the crowd); the second level - from the psycho-physiological process of perception and the third - from the structure of space, depending on the influence of culture. At this level, the dynamic characteristics of space are highlighted. E. Hall described the norms of personal intimacy characteristic of North American culture. These norms are defined by four distances: The marked distances are the concentric spaces in the center that are the subject of communication:

1. Intimate distance (radius) from 0 to 45 cm is used when communicating with the closest people[5];

2. In everyday communication with acquaintances, a personal distance of 45 to 120 cm is used;

3. When communicating with strangers and in official communication, a social distance of 120 to 400 cm is preferable;

4. When speaking to different audiences, a total distance of 400 to 750 cm is used.

The factors influencing the establishment of the proxemic distance are different. In domestic psychology, data have been obtained that indicate that changes in the meaning of interpersonal distance within the framework of a cultural stereotype are of a group nature[6]. For example, increasing the distance of communication with older people, moving away from “strangers”, rapprochement with “relatives”. At the same time, the severity of the cultural stereotype of behavior is more pronounced in anxious people. A high level of anxiety is an incomplete adaptive factor that causes an “escape” reaction, which is manifested by an increase in the contact distance. The choice of communication distance in practice is carried out unconsciously, but even in this case, if the real distance does not correspond to the norm, a person will always react.

Features of non-verbal communication in different countries are reflected not only in gestures, looks and facial expressions, but also in the size of the zone of personal space[7]. The warmer the country, the more temperamental its population, and the smaller the distance between the interlocutors, the more acceptable it is.

During a conversation, representatives of different countries prefer the following distance:

The close distance at which they communicate with each other is preferred by Italians, Spaniards, French, Arabs, Greeks, Japanese, South Americans.

The average distance is preferred by the British, Austrians, Germans, Swedes, Russians, residents of Switzerland.

An intermediate distance is preferred by those who are much more distant from each other - New Zealanders, Australians, North Americans

Distance is defined differently in different states. As you get closer to the north, the distance between people increases[8]. As you move south, the distance between people decreases. The British keep a certain distance when talking, the Arabs are close enough to feel the interlocutor’s breath, and the Japanese keep their mouths closed so that the breath does not touch you when they laugh.

A strong blockage (for example, on an escalator, elevator, bus) can be interpreted as an invasion of someone’s territory. A long look at a representative of the opposite sex indicates impudence or a desire to get to know each other.

It is important for the leader to know the social background of subordinates. However, this does not mean the division of the leadership into ethnic groups[9]. This should give them the opportunity to connect with people who are different from them in new ways. It is important to overcome cultural differences, but it is also necessary to take into account individual differences. It is important to remember that distance is an important factor in all interpersonal relationships.

Reference

1. Аверкина, Л. А. Невербальная коммуникация - важный аспект межкультурной коммуникации [текст]/ А. Л. Аверкина // Вестник Московского государственного лингвистического университета. - 2008. - № 554. - С. 123-133

2. Пиз, Алан. Язык телодвижений. Как читать мысли других по их жестам [текст]/ Алан Пиз - М.: ЭКСМО, 2010. – С. 278

3. Rizaev I. I. The structure of the social system as the basis for the self-organization of



society //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 7. – С. 190-195.

4. Сафаров А. И., Хаккулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.

5. Ризаев И. И., Муминова З. О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.

6. Аликулов С. А., Ризаев И. И. Основы управления и оценки эффективностью предприятия //Фундаментальные и прикладные аспекты глобализации экономики. – 2021. – С. 233-235.

7. Шодиев, Р. Т. Философские концепции соотношения языка и мышления / Р. Т. Шодиев, Н. Кушакова // Философия в современном мире : сборник научных докладов международной научно-практической конференции, посвященной 25-летию семинара «Проблема обоснования знания» и 70-летию юбилею профессора Кудряшева Александра Федоровича, Уфа, 25 января 2017 года. – Уфа: Башкирский государственный университет, 2017. – С. 261-267. – EDN YJVEIV.

8. Ганиев К., Ризаев И. И. Конструктивные и деструктивные аспекты либерализации социальной системы: философский подход //Вестник Прикамского социального института. – 2021. – №. 2 (89). – С. 156-162.

9. Muhammadievich G. O. The role of the family in the development of the aesthetic culture of youth //International Journal of Intellectual Cultural Heritage. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 42-49.



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM ONA TILI DARSLARIDA QO‘SHIMCHA MASHQLAR
BAJARISH**

Safarova Gulbahor Rahmatovna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani 17 -maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 998 94 220 40 09

Jalolova Yulduz Sa‘dullayevna,

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani 17 -maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 998 93 435 35 94

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida darslikda mavzular bo‘yicha berilgan materiallardan tashqari qo‘shimcha mashqlarni interfaol usullar asosida tashkil etish yuzasidan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi nazorati, idrok etish, ijodiy qobiliyat, didaktik o‘yinlar, she‘r, yasovchi qo‘shimchalar, guruhlar, guruhlar, xotira mashqi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida yangi mavzuni o‘zlashtirish va mustahkamlashda mavzuga oid qo‘shimcha mashqlar bajarish ta‘lim-tarbiya samaradorligini ta‘minlashda muhim o‘rin egallaydi. Ma‘lumki, boshlang‘ich sinflarning ona tili darsliklarida o‘tilayotgan mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar, dastlab, o‘qituvchi nazorati ostida bajaradilar. Chunki mavzuga oid mashq ilk marta bajarilayotganda o‘quvchilar mashqni notog‘ri bajarib qo‘yishlari mumkin. Dastlab mashqlar o‘qituvchi ko‘magi bilan bajarilsa, mashq to‘g‘ri bajariladi, mashqdagi so‘zlarga savol berib qoidalar chiqariladi, amaliy mashq nazariya bilan bog‘lanadi.

Ona tili ta‘limida darslikda berilgan mashqlardan tashqari, interfaol usullardan foydalanib qo‘shimcha mashqlarni bajarish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabatlarini va bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Asosiysi, o‘quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllanib borishi rivojlanadi. O‘quvchilar darsda qo‘shimcha mashqlar bajarishi jarayonida erkin harakat qiladilar, mustaqil fikrlaydilar, bajarilayotgan mashqqa o‘zlarining erkin ravishda munosabatlarini ifodalay oladilar. Darsda qo‘shimcha mashqlar bajarishda interfaol usullar va didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qish-o‘rganish jarayonini yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan ko‘plab mavzular bo‘yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o‘quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. 3-sinfda ona tilidan “Asos va asosdosh so‘zlar” bo‘limi o‘tib bo‘lingandan so‘ng “Mustahkamlash” mavzusi bo‘yicha 173-175-mashqlar berilgan. Ushbu mashq bajarilgach, bo‘lim yuzasidan o‘quvchilarda kompetentlikni shakllantirish maqsadida ko‘rgazmali mashq o‘tkaziladi. Sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi. Har bir guruh nomlanadi: 1-guruh nomi “So‘z yasovchi qo‘shimchalar”, 2-guruh nomi “Asosdosh so‘zlar”. Kompyuter proyektor orqali “O‘qish kitobi” dan Orif To‘xtashning “O‘zbekiston” she‘ri namoyish etiladi.

1-guruh ushbu she‘rdan yasovchi qo‘shimchalar bilan hosil bo‘lgan so‘zlarni aniqlaydi va ularning asosiga ma‘nodosh so‘zlarni topib yozadi. 2-guruh ushbu she‘rdagi yasama so‘zlardagi qo‘shimchalarni qo‘llab asosdosh (bir asosli) so‘zlar tuzadi.

Topshiriqni 1-guruh quyidagicha bajaradi: O‘zbekiston, serquyosh, beqiyos, barkamoli, samoli, ziyoli, farovonlik. Quyosh, oftob, kun; qiyos, o‘xshash, mos; samo, osmon, ko‘k; ziyo, nur; farovon, obod.

2-guruh topshiriqni quyidagicha bajarishi mumkin: O‘zbekiston, Guliston, Turkmaniston va h.k. Serquyosh, serharakat, serunum, serdaromad va h.k. Beqiyos, beparvo, betartib, beaql, beg‘ubor va h.k. Samoli, ziyoli, gulli, chiroyli, aqlli, bilimli va h.k. Farovonlik, tinchlik, obodlik, go‘zallik, yaxshilik va h.k.

Ushbu darsda “Xotira mashqi” o‘yinli texnologiyani tashkil etish ham mumkin. O‘quvchilarga kompyuterda slayd orqali chiroyli, odobli, guldor, suvsiz, paxtazor, fusunkor, bepoyon, tuzli, ishyoqmas, bog‘bon, o‘quvchi, kabi so‘zlar ko‘rsatilib, bolalarga eslab qolish aytiladi. So‘ngra kompyuter o‘chiriladi va o‘quvchilarga daftarlariga ko‘rgan so‘zlarini yozish topshiriladi. Bu mashqda hamma o‘quvchilar ishtirok etadi. Ko‘p so‘zni eslab yozgan o‘quvchiga 5 ball beriladi.



O‘quvchilari guruhlarda jamoa bo‘lib ishlashi mavzuga oid qo‘shimcha mashqlar bajarganlarida do‘stona muhit yuzaga keladi, jamoalar g‘alabasi uchun kurashdilar, mashqni tez va sifatli bajarishga harakat qildilar.

3-sinfda ona tili ta‘limida ot so‘z turkumi bo‘yicha darslikda berilgan material-larga qo‘shimcha ravishda “Kim tez topadi?” didaktik o‘yinidan foydalanish o‘quvchilarning o‘tilgan mavzu bo‘yicha bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, quyidagi gaplarda tushub qolgan kim? va nima? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarni topib, nuqtalar o‘rniga qo‘ying, gaplarni ko‘chiring.

1. O‘quvchilarni sevib o‘qishadi.
2.g‘o‘zaga suv quymoqda .
3. Oshpaz qozonga gurunchni solib, ..ni damladi.
4.mashinani tez haydab ketdi.
5. Bog‘dan gullar uzib ,yasadim.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchining o‘quvchilar bilan ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi, o‘quvchi-larning nutq boyligi va yozma savodxonligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi tahrirdagi ona tili fani o‘quv dasturi (1-4-sinf). T. 2017-y.
2. Rivojlantiruvchi ta‘lim texnologiyalari. (Metodik qo‘llanma) RTM. 2016.
3. Ona tili. 3-sinf. 2016-yil.
4. O‘qish kitobi. 4-sinf. 2017-yil.
5. <http://www.ziyonet.uz/>



СРАВНИТЕЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ СОСТОЯНИЯ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ И ЕЁ АНАЛОГИ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ.

Усманова Дилдора
 Магистрант Гулистанского
 Государственноно Университета
 +998996311312
 Privett075@gmail.com

Аннотация: В данной работе проанализированы средства выражения категориального значения состояния в ходе исторического развития русского языка, а также выявлены типологические особенности данного языкового явления в узбекском языке.

Ключевые слова: категория состояния, лексика, грамматика, безлично-предикативные слова, предикативы.

Сравнительное - исторические исследование языков является наиболее актуальных направлений современной лингвистики. Сравнительный анализ, сопоставляющий языковые явления, позволяет изучить языки под новым ракурсом, выявить неизвестные языковые факты, проследить развитие и изменение тенденций в языковых системах. Интересным в этом плане нам представляется проследить формирование в данных славянских языках «категории состояния», то есть специфической группы знаменательных слов, которые выражают физическое или психическое состояние человека, обозначают природные явления, а в предложении выполняют исключительно предикативную функцию.

Категория состояния как самостоятельная часть речи признается далеко не всеми лингвистами. Кроме того, те ученые, которые признают существование этой части речи по – разному определяют ее состав и грамматические свойства слов, ее образующих. Действительно, в современном русском языке появляются новые слова, новые явления в лексике и грамматике. Русский язык действительно живёт. К нему даже не применимо само слово «стоять». Слова обретают окраску, например, эмоциональную. А двигаться вперёд русскому языку помогают как лексика, так и грамматика. Лексика позволяет нам понять смысл слов, а грамматика – связать их воедино и придать нужную понятную форму, чтобы мы с собеседником лучше понимали друг друга.

Но Шведова Н. Ю. подчёркивает, что общность категориальных значений и синтаксических функций даёт основание объединить все такие слова в особый грамматический класс, который иногда называют категорией состояния.

Как указывалось, значительный вклад в изучение категории состояния внесли именно отечественные ученые, которые, открыв данный феномен в русском языке, сделали возможным подобное открытие в других языках. Первому группу слов, обозначающих состояние выделил Л.В. Щерба в своей статье «О частях речи в русском языке» (1928). Формальными признаками этой категории, по его мнению, были бы «неизменяемость, с одной стороны, и употребление со связкой с другой: первым она отличалась бы от прилагательных и глаголов, а вторым - от наречий» [1, с.74]. Он относит сюда такие выражения как «я рад, я готов, мне холодно и т.п.». Однако, автор не считал новую категорию яркой и убедительной в русском языке.

Ближе всех подошел к данному вопросу А.А. Шахматов после выхода «Очерка современного русского литературного языка», где он касался преимущественно отдельных морфологических и синтаксических своеобразий краткой формы имени прилагательного. Значительную роль в выделении слов категории состояния, как отдельной части речи русского языка. Практически применив созданный Л.В. Щербой критерий синтаксических свойства слова, он создал новую систематизацию частей речи в своем труде «Русский язык». Тем самым принимались во внимание морфологические, словообразовательные и семантические свойства слова [3, с. 4]. В современном русском языке категория состояния представляет собой часть речи, обозначающую состояние и употребляется в функции главного члена безличного предложения, например: *Здесь красиво. На улице холодно.*

Для обозначения данной части речи используют и другие термины, подчеркивающие синтаксическую функцию слов данного лексико-грамматического класса: **безлично-**



предикативные слова, предикативы. У слов категории состояния нет специфических морфологических признаков. Подобно наречиям, слова категории состояния являются неизменяемыми, исключение составляют слова на –о, имеющие форму сравнительной степени, например: *На улице стало еще холоднее*. К морфологическим особенностям слов категории состояния, следует отнести способность выражать значение времени, передаваемого связкой, с которой сочетаются безлично-предикативные слова (*было грустно, будет грустно, стало весело, станет весело*). Отсутствие связки служит показателем настоящего времени.

Безлично-предикативные слова могут распространяться существительными и местоимениями в форме дательного падежа без предлога, родительного и предложного падежей с предлогами: *Мне скучно. В комнате душно. Без тебя тоскливо*. При словах категории состояния могут быть наречия места, времени, количества, меры: *В комнате тихо*.

Категория состояния, не обладая чётко очерченными морфологическими признаками, как, например, глагол, на протяжении ста пятидесяти лет притягивает к себе внимание лингвистов. Трудности, встречающиеся при разграничении слов категории состояния, обуславливаются также тем, что в рамки устоявшихся грамматических категорий, мы не можем вписать категории мысли современного человека. Вполне возможно, что в будущем категория состояния или те слова, которыми она представлена, будут называться по-другому, поскольку термин «состояние» указывает только на их семантику, а термин «предикативы» на синтаксическую функцию, таким образом ни одно из названий не может полностью выразить сущность исследуемой категории

Части речи как основные грамматические и лексические классы слов характеризуются не только наличием общего (категориального) значения, набором (или отсутствием) тех или иных грамматических категорий, типом словоизменения (или неизменяемостью), но и спецификой лексической парадигматики и синтагматики. Развитые антонимические отношения характерны для основных частей речи и русского, и узбекского языков. Полностью контрастной по отношению к узбекскому языку является антонимия слов категории состояния русского языка (темно — светло, чисто — грязно, тепло — холодно, весело — грустно), поскольку на речном уровне данная категория в узбекском языке не выделяется. Определённые соответствия наблюдаются только в паре модального значения можно — нельзя (мумкин — мумкин эмас). Безличные глаголы обозначают действие, которое протекает само по себе, без его производителя: при таком глаголе подлежащего не может быть. Они не имеют категории лица, не изменяются по числам и по родам, не образуют форму повелительного наклонения. Безличные глаголы изменяются по временам (рассветает, рассветало, будет рассветать), образует форму сослагательного наклонения (рассветало бы). Узбекские глаголы в безличном значении употребляются очень редко. Безличные глаголы русского языка в роли сказуемого в предложении передаются в узбекском языке часто личными формами соответствующих глаголов. Например: *Мне не спится – уйкум келмаяпти. (Мой сон не приходит). Вечереет – Кеч кира бошлади. (Вечер начал входить)*. обозначают действие, которое протекает само по себе, без его производителя: при таком глаголе подлежащего не может быть. Они не имеют категории лица, не изменяются по числам и по родам, не образуют форму повелительного наклонения.

Семантическое поле состояния отражает мир внутренних переживаний человека, его восприятие окружающего мира, поэтому языковые средства, выражающие состояние, находятся в постоянном развитии и характеризуются уходом из языка старых и появлением новых способов передачи этого значения.

Спорный языковой статус категории состояния, недостаточная разработанность данной проблематики в сравнительно-историческом аспекте обусловили выбор темы моего тезиса. Основной целью, стало проанализировать средства выражения категориального значения состояния в ходе исторического развития русского языка, а также выявить типологические особенности данного языкового явления в узбекском языке.



Литература:

1. А.А. Шахматов // «Очерка современного русского литературного языка» М. изд. Юрайт 2019г — 288 с.
2. Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность / Ред. Л. Р. Зиндер, М. И. Матусевич; Акад. наук СССР, Отд-ние лит. и яз., Комис. по истории филол. наук. — Л.: Наука. Ленингр. отд-ние, 2004. — 427, [1] с.: 1 л. портр. — Библиогр.: с. 413-418.
3. Шведова, Наталия Юльевна // Хвойка — Шервинский [Электронный ресурс]. — 2017. — С. 728—729. — (Большая российская энциклопедия: [в 35 т.] / гл. ред. Ю. С. Осипов; 2004—2017, т. 34). — ISBN 978-5-85270-372-9.
4. Золотова 2011 – ЗОЛотова, Г. А. Синтаксический словарь: Репертуар элементарных единиц русского синтаксиса. Изд. 4-е. Москва: Едиториал УРСС, 2011. 440 с



О‘QUVCHILAR YOZMA NUTQ SAVODXONLIGINI OSHIRISH

Hamroyeva Nargiza Abdumannonovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar 17 -maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon: 998 99 726 30 991

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozma savodxonligini oshirishda ona tili darslarini fanlararo aloqadorlikda tashkil etish omillari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Fonetik, grammatik, uslubiy, guruh, atamalar, o‘zlashma so‘zlar, tabiat unsurlari, tuproq, havo, moddalar, minerallar, metallar, badiiy asar.

Yangilangan ona tili fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta‘lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Ona tili o‘quv dasturida o‘quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalar elementlarini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Boshlang‘ich ta‘lim ona tili fanini o‘qitishda o‘quvchilarning savodxonligini ta‘minlash, og‘zaki va yozma nutqida adabiy nutq me‘yorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqi ustida ishlash eng dolzarb masalalardan sanaladi. Bu vazifani bajarish uchun, avvalo, o‘qituvchining husnixat malakasi yuqori darajada bo‘lishi, fonetik, grammatik, uslubiy qoidalarni chuqur bilimga egaligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘qituvchining nutq boyligi keng, u og‘zaki nutqi ravon va chiroyli, she‘riy va badiiy matnlarni ifodali o‘qish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida ular tomonidan qo‘llaniladigan so‘zlar ko‘payib, nutqi rivojlanib, so‘z boyligi ortib boraveradi.

O‘quvchilar ona tilidagi fonetika, morfologiya, grammatikaga oid tushuncha va qoidalarni, o‘qishdan sarlavha, matn, she‘r kabi manbalar hamda ularning farqini o‘rganib boradi. O‘quvchilar boshqa o‘quv predmetlaridan ham bilimlarni egallash jarayonida fanga doir terminlarni o‘rganadi. O‘quvchilarning nutq boyligi shu tarzda yangi-yangi so‘z va tushunchalar bilan boyib boraveradi.

O‘quvchilar yozma nutqi samaradorligini oshirishda ona tili darslarida boshqa fanlardagi manbalardan foydalanishning ahamiyati katta. Masalan, 3-sinfda ot so‘z turkumi bo‘yicha o‘tilganlarni mustahkamlash darsini ijodiy tarzda fanlararo bog‘liklikda tashkil etish orqali o‘quvchilar yozma nutqini o‘stirishga yordam beradi. O‘qituvchi sinf o‘quvchilarini to‘rt guruhga bo‘lib, har bir guruhga alohida-alohida oq plakatga bosma shaklda 4-sinf “Tabiatshunoslik” darsligidan olib yozilgan matnlar taqdim etiladi. Guruh a‘zolari berilgan matndan atamalarni aniqlaydi va unga kichik sarlavha qo‘yadi. Keyin bu so‘zlar qaysi fanga yoki sohaga oidligini aytadi. Guruh a‘zolaridan biri xattaxta(doska)ga chiqib, ushbu atamalarni xatosiz va chiroyli qilib yozadi. Guruhlarning bajargan ishlarini sinfdagi boshqa o‘quvchilar ham daftarlariga ko‘chirib oladi. Masalan, topshiriqlar quyidagicha:

1-guruhga berilgan matn. Tuproqdagi minerallarni temir, ohaktosh, kalsiy, kaliy, fosfor kabi moddalarning kukuni tashkil etadi.

2-guruhga berilgan matn. Tabiat jonsiz va jonli tabiat unsurlariga bo‘linadi. Quyosh, yulduzlar, Oy, Yer, tosh, tabiiy gaz, bulut, havo, suv kabilarjonsiz va jonli tabiat unsurlaridir.

3-guruhga berilgan matn. Bizga ko‘rinmaydigan havo turli moddalardan tashkil topgan. Havo tarkibida azot, kislorod, karbonat angdirid, suv bug‘i va boshqa moddalar bor.

4-guruhga berilgan matn. Temir, oltin, kumush, mis, alyuminiy, volfram kabilar metallarni tashkil etadi.

O‘quvchilar topshiriqni quyidagicha taqdimot qiliadi:

1-guruh: Sarlavha-Tuproqdagi minerallar. Atamalar-temir, ohaktosh, kalsiy, kaliy, fosfor, modda.

2-guruh: Sarlavha-Tabiat unsurlari. Atamalar-Quyosh,yulduz, Oy, Yer, tosh, tabiiy gaz, bulut, suv, havo.

3-guruh: Sarlavha-Havodagi moddalar. Atamalar-azot, kislorod, karbonat angdirid, suv bug‘i.

4-guruh: Sarlavha- Metallar. Atamalar- temir, oltin, kumush, mis, alyuminiy, volfram, metall.

Ona tili darslarida o‘tilgan mavzularga mos ravishda tasviriy san‘at va texnologiya fanlari materiallaridan, badiiy asarlardan foydalanish o‘quvchilar yozma nutq savodxonligini oshirishda muhim vosita bo‘liadi.



Jumladan, sinfdan tashqari o'qish uchun berilgan badiiy asarlar matni asosida ham yuqoridagi kabi ta'limiy mashqlar o'tkazilishi mumkin. Bunda o'qituvchi asardan olingan parcha-matnni slayd orqali namoyish qiladi. O'quvchilardan ikki-uch nafari matnni ovoz chiqarib, ifodali o'qiydi. So'ng matn asosidagi savollar ikkinchi slaydda ko'rsatilib, savollarga yozma javob berish topshiriladi. Bu topshiriq o'quvchilarda nutqiy va lingivistik kompetensiyani shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, og'zaki nutqning takomillashuvi bevosita yozma nutqqa bog'liq.

Demak, o'quvchi fonetik, morfologik, sintaktik bilimlarni yozma nutqda qo'llay olish malakasiga ega bo'lsagina, u ifodali, tushunarli va chiroyli so'zlay oladi. Shu jihatdan yuqorida keltirilganidek, boshqa fanlar matnlari asosida amaliy mashqlar bajarish orqali o'quvchilar ham og'zaki, ham yozma bayon qilishni o'rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi tahrirdagi ona tili fani o'quv dasturi (1-4-sinf). T. 2017-y.
2. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. (Metodik qo'llanma) RTM. 2016.
3. Ona tili. 3-sinf. 2016-yil.
4. Tabiatshunoslik kitobi. 3-sinf. 2019-yil.
5. <http://www.ziyonet.uz/>



GREEK AND LATIN ROOTS AND AFFIXES

Jarimbetova Nigora Muratbaevna
Qoroqolpog’iston Respublikasi Kegeyli tumani
9-IDUM Ingliz tili fani o’qituvchisi
njarimbetova@gmail.com

Annotation: This article focuses on origin of English words and their meanings.

Key words: root, affix, prefix, suffix, origin

English is the most spoken language in the world and widest spread of all. So, have you ever thought about where all those English words come from? Do you know their origin? Many English words have Greek and Latin roots. Knowing the meaning of the root can help you to figure out the meaning of the word. For example the word “telephone” has Greek roots “tele” and “phone”, which mean “distant” and “sound”. So you can tell that telephone is a device that allows you to hear distant sounds. Here are some common Greek and Latin roots.

Greek roots

Root/Affix	Meaning	Example
auto	self	automatic, automatic, autobiograph
anti	against	antibacterial, antidote, antithesis
bio	life	Biology, biography
chrome	color	monochromatic, phytochrome
doc	teach	document, docile, doctrinal
dyna	power	dynasty, dynamic, dynamite
geo	earth	geography, geology, geometry
Graph, gram	To write	Autograph, telegramm
Homo	same	Homonym, homogeneous
hyper	Over/above	Hypotension, hypodermic
micro	Very small	Microscope, microchip
mono	Alone, only	Monologue, monogram
photo	light	photograph, photocopy, photon
poly	many	Polygon, polytechnique
schem	plan	scheme, schematic
therm	heat	Thermometer, thermal

Latin roots

aud	hear	audible, audience, auditorium
aqua	water	aquatic, aqueduct
cent	hundred	century, percent
contra	against	contraband, contradict
circ	round	circus, circulate
form	shape	transform, formal
inter	between	International, intermediate
log, logue	thought	logic, apologize, analogy
multi	many	Multiply, multitude
ped	food	Pedal, pedestrian
port	Carry	export, portable, transport
semi	half	Semester, semifinal
Sub	Under	Subconscious, submarine

Understanding the meanings of the common word roots can help us deduce the meanings of new words that we encounter. But be careful: root words can have more than one meaning as well as various shades of meaning. In addition, words that look similar may derive from different roots.

References:

1. Bryant, Alice, and Robbins, Jill. «Grow Your Vocabulary by Learning Root Words.» VOANews.com 28 November 2017.
2. Grammarly staff. «Why You Should Learn Roots.» Grammarly.com, 6 February 2016
3. McCammon, Ellen. “50 GRE Words You Should Know.” PrepScholar.com, 8 February 2017.
4. “Boost your English vocabulary with these 50 Greek and Lateen root words” by Richard Nordquist Updated on November 21, 2019



ASSOTSIIATIV TAJRIBA VA UNI TASHKIL QILISH USULLARI XUSUSIDA

Hamida Ortiqova Maxmud qizi

Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti o‘qituvchisi
+998914470123
hamidaortiqova92@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada assotsiativ tajriba va uni tashkil qilish usullari tadqiq qilingan. Assotsiativ tizim va jarayonlarni kompleks tadqiq etish, o‘zbek tili sohiblarining til ongi asosida assotsiativ maydonlarni modellashtirish, tekshirilayotgan kishilarning assotsiativ javoblari orqali til birliklarining kognitiv strukturasi hosil qilish tajriba orqali amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: lisoniy tajriba, assotsiativ tajriba, tajriba usullari, assotsiativ tizim, verbal assotsiatsiya, assotsiativ munosabat, assotsiativ maydon.

Ma’lumki, bugungi kun dunyo tilshunosligida milliy qadriyatlar, milliy ong va tafakkurni lisoniy vositalar orqali idrok etish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirda sistem-struktur tilshunoslik, neyrolingvistika, ijtimoiy psixologiya, kognitiv tilshunoslik kabi fanlar turli amaliy tajribalar o‘tkazishni talab qiladi. Bu esa tilni amaliy va nazariy jihatdan tahlil qilish, til masalalarini uning sohiblari dunyoqarashi, tafakkuri va obyektiv olamni bilish darajasidan kelib chiqib tadqiq etish fanda katta yutuqlarni qo‘lga kiritishni ta’minlaydi.

Har bir til egasining miliy ongi va tafakkurini lisoniy tajribalar orqali o‘rganish va tadqiq etish mumkin. Aynan assotsiativ tajribalar yordamida shaxs xotira zanjirining voqealinishi, zanjir uzvlarining bir-biriga bog‘lanish omillarini aniqlanadi. Assotsiativ tajribalar orqali millat tafakkurining umumiy va individual qatlamini farqlash muhim omil hisoblanadi. Jamiyatimizda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar hamda fan-texnika taraqqiyoti zamonaviy o‘zbek tilshunosligida tilning immanent realligiga e’tiborning kuchayishiga olib kelmoqda.

Assotsiativ tizim va jarayonlarni kompleks tadqiq etish, o‘zbek tili sohiblarining til ongi asosida assotsiativ maydonlarni modellashtirish, tekshirilayotgan kishilarning assotsiativ javoblari orqali til birliklarining kognitiv strukturasi hosil qilish, albatta, tajriba orqali amalga oshiriladi.

Assotsiatsiyalarning o‘rganilish tarixi qadimgi grek tilshunosligi, xususan, Aristotel asarlarida bayon etilib, XX asr boshlariga kelib, tibbiyot va psixologiya fanlari bu masala bilan maxsus shug‘ullanila boshladi. Assotsiatsiyalarni tajriba orqali o‘rganishga bag‘ishlangan yirik tadqiqotlar muallifi Frensis Galtondir. U XIX asrning oxirida birinchi bo‘lib assotsiativ tajriba o‘tkazib, ularga ilmiy jihatdan yondashdi. Keyinchalik bu xususda G.Kent va A.Rozanov tomonidan o‘tkazilgan tajribalardan ma’lum bo‘ladiki, assotsiatsiya shaxslarning nafaqat psixik rivojlanishini, balki nutqiy faoliyatini, uning taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi. So‘ngra assotsiatsiyalar D.Diz, Ch.Kofer, Ch.Osgud, K.Yung, Z.Freyd, J.Djenkins, Mak Korkodeyl va V.Bousfild kabi psixolog olimlarning ilmiy izlanishlarida ham asosiy o‘rinni egalladi. J.Diz, J.Djenkins, Ch.Kofer, V.Bousfild so‘z-stimulning alohida assotsiativ reaksiyalarini emas, balki so‘zga taalluqli assotsiatsiyalar to‘rini tadqiq etdilar.

Assotsiatsiyalarni o‘rganish rus tilshunosligida dastlab XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Yu.N.Karaulov, G.S.Shur, A.R.Luriya va G.M.Martinovich kabi tilshunos olimlar tomonidan assotsiatsiyalar bilan bog‘liq masalalar u yoki bu tarzda tadqiq etildi. Nutqdagi assotsiativ aloqalar ham A.A.Andrievskaya, Ch.Osgud, Mark kabi tilshunos olimlarning e’tiborini jalb etdi. Falsafa, mantiq va psixologiya yo‘nalishlarida Platon, Aristotel, T.Gobbs, D.Lokk, I.F.Gerbert, Z.Freyd, K.Yung, A.R.Luriya singari olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borildi. Tilga assotsiativ yondashuvda V. fon Gumboldt, A.A.Potebnya, N.V.Krushevskiy,

A.Leontev, A.Vejbiskaya, A.A.Ovchinnikova asarlarida ifodalangan.

Assotsiativ tajribalarda ifoda etilgan verbal assotsiatsiyalar F.Galton, A.Tumba va K.Marbe, G.Kent va A.Rozanov, D.Palermo, J.Diz, J.Djenkins, A.R.Luriya, A.A.Leontev, A.A.Zalevskaya, Yu.N.Karaulov ishlarida keltirilgan.

O‘zbek tilshunosligida Sh.Iskandarova, A.Sobirov va B.Qurbonova, D.Xudoyberganovalar tomonidan assotsiativ munosabatlar xususida ba’zi fikrlar mavjud bo‘lsa-da, D.Lutfullaevaning ishlarida assotsiativ munosabatlar, assotsiativ tajriba, assotsiativ maydon masalalari, ularning turlari nazariy jihatdan yoritilgan.



Har bir tilda assotsiativ munosabatga kirishuvchi leksik birliklar qayd etiladi. A.Nurmonov o‘zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishini leksemalarga xos umumiy belgi bilan bog‘laydi. Uning fikricha, «so‘z sintagmatik munosabatga kirishi bilan birga nutqiy jaraëndan tashqarida boshqa so‘zlar bilan umumiylik belgisiga ko‘ra so‘zlovchi til xotirasida assotsiatsiyalashadi va bu assotsiatsiyalashgan birliklar xotirada muayyan guruhlarni hosil qiladi» [12, 58]. Albatta, tilning leksik birliklari semantik, struktur, derivatsion, konnotativ, akustik kabi qator belgilari asosida umumiylikka birlashishi mumkin. Bu kabi umumiy belgilar ko‘plab leksik assotsiatsiyalarda kuzatiladi. Biroq o‘tkazilgan assotsiativ tajribalarda leksema ma’nosini tushunmay, sun’iy tarzda hosil qilingan assotsiatsiyalar ham kuzatiladi.

Assotsiativ tajriba o‘tkazilayotganda shaxsning ongi ifodalanadi, tajriba jarayonida shaxsning hayotiy tajribasi orqali to‘plangan tushunchalar ifodalanadi. Shu bois assotsiativ maydon doimo o‘zgaruvchanligi, dinamik xarakterga egaligi, shaxsning hayotiy tajribasi oshgan sari so‘z-stimulga berilgan so‘z-reaksiyalar o‘zgarib turishi bilan ifodalanadi.

Jamoaviy va individual assotsiativ maydonlarni farqlash uchun erkin va zanjirli assotsiatsiyalar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Erkin assotsiatsiyalar tajribasi orqali jamoaviy assotsiativ maydon birliklarini yuzaga kelishi ifodalanadi. Masalan, tajribada 70 nafar kishi qatnashadi. “Tibbiyot” tushunchasi ostida birlashgan qator so‘zlar qatnashchilarga tarqatilib beriladi va shunga asosan tibbiyotga taalluqli so‘zlarning assotsiativ lug‘ati shakllanadi, ko‘p qayd etilgan so‘zlarga asosan maydon yadrosi shakllanadi, maydon bazasi va periferiyasi so‘zlarning takrorlanishi miqdoriga qarab aniqlandi.

Zanjirli assotsiativ tajribalar olib borishda ikkita usuldan foydalaniladi. Birinchi usulda tekshiruvdan o‘tkazilayotgan kishilarga so‘z berilgandan keyin ular xayoliga kelgan so‘zlar bilan javob berish tavsiya etiladi. Berilgan so‘zga assotsiativ javoblar miqdori cheklanmasdan, kishi hayolida hech qanday reaksiya qolmaguniga qadar assotsiativ javoblar berish davom ettiriladi. Bunda kishining individual assotsiativ maydoni tekshiriladi. Ikkinchi usulda esa berilgan so‘zlarning reaksiyasiga zanjir kabi vujudga kelgan assotsiativ reaksiyalar inobatga olinadi. Ushbu ikkinchi zanjirli assotsiativ tajriba orqali inson ongida so‘zlar ma’lum bir uyalarga birlashishi hamda lug‘at tarkibidagi so‘zlarning bir-biri bilan bog‘liqligi belgilanadi.

Y.I.Goroshkoning fikricha, assotsiativ tajribalar jarayonida tadqiqotchilar assotsiatsiyalarning tasniflash muammolariga duch kelgan va hozirgi kunda me’yor sifatida mukammal tasnif mavjud emas. Ye.I.Goroshko o‘z tadqiqotlarida assotsiatsiyalar tasniflarining aksariyat turlarini keltirgan [1]. Shuningdek, K.Grigoryan, K.Yung, Yu.N.Karaulov, A.R.Luriya, M.Trautsholdt, X.Myunsterberg, E.Krepelin, A.Tumb, K.Marbe, J.Miller, Ch.Osgud kabi tadqiqotchilar assotsiatsiyalarni mantiqiy jihatdan so‘z turkumi bo‘yicha, ma’no farqlash bo‘yicha, fonetik va grammatik jihatdan, mavhum va aniqligi bo‘yicha turlarini ajratgan.

Umuman, assotsiativ tajriba o‘tkazilayotganda shaxsning ongi, tafakkuri voqelanadi, tajriba jarayonida shaxsning hayotiy tajribasi orqali to‘plangan tushunchalar oydinlashadi. Bunda erkin va zanjirli assotsiatsiyalar tajribasidan foydalanish til egasi xotirasidagi assotsiatsiyalarning barchasini yuzaga chiqarishda hamda ularni to‘laqonli tahlil qilishga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Т.: Мериус, 2017. –140 б.
2. Нурмонов А. Лингвистик таълимотнинг янги босқичи. Танланган асарлар. III жилд. – Т.: Академнашр, 2012. – 376 б.
3. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: «Академнашр», 2012.
4. Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
5. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док... дис. – Т.: ЎЗРФА ТАИ, 2015. – 240 б.



TARJIMA LUG‘ATLARIDA SINONIM LEKSEMALARNI BERISH TARTIBI

Saidova Farida Allayor qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

o‘qituvchisi

saidovafarida95@gmail.com

+998978561595

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada tarjima bilan bog‘liq jarayonlar, tarjima lug‘atlarida sinonim leksemalarning berilishi va u bilan bog‘liq muammolar yoritilgan. Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha tarjima lug‘atlari va dunyo tilshunosligida tarjima jarayonining rivojlanishi yuzasidan tadqiqot olib borilgan. Inglizcha-o‘zbekcha tarjima lug‘atlarida sinonimlar bilan bog‘liq holatlar va misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, sinonimiya, leksema, lug‘at, leksikografiya, tarjima jarayoni.

ABSTRACT: This article describes the process of translation, the presentation of synonymous lexemes in translation dictionaries, and related problems. Research has been conducted on the development of English-Uzbek, Uzbek-English translation dictionaries and the translation process in world linguistics. English-Uzbek translation dictionaries provide examples and examples of synonyms.

Keywords: translation, synonymy, lexeme, dictionary, lexicography, translation process.

АННОТАЦИЯ: В данной статье описывается процесс перевода, представление синонимичных лексем в переводных словарях и связанные с этим проблемы. Проведены исследования по разработке англо-узбекских, узбекско-английских переводных словарей и процессу перевода в мировой лингвистике. В англо-узбекских словарях приведены примеры и примеры синонимов.

Ключевые слова: перевод, синонимия, лексема, словарь, лексикография, процесс перевода.

Har bir davlat boshqa davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirar yekan, shu til doirasida tarjima lug‘atlarini tuzishga va foydalanuvchilar soni oshsa, rivojlantirishga harakat qiladi. O‘zbek tarjimashunoslik sohasida ham bir qancha tarjima lug‘atlari ketma-ket nashr etila boshlandi. Inglizcha-o‘zbekcha, nemischa-o‘zbekcha, fransuzcha-o‘zbekcha, koreyscha-o‘zbekcha va b. , bu qatorni davom ettirish mumkin. Bunday lug‘atlar ichida eng ko‘p izlanadigan va hozirgi kunda turli variantlari yaratilayotgani inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha tarjima lug‘atlaridir.

Tarjima – muhim jarayon. Tilning yeng boy lug‘aviy qismini tashkil qiluvchi leksik sinonimlarsiz qaysidir uslubda yozilgan jumlaning tarjimasi to‘liq bo‘lmaydi. Lisoniy tizimning voqelanish jarayoni deganda muayyan nutq sharoitida so‘zlovchining maqsadi, nutq sharoiti, lisoniy birliklardan mosini tanlash va uni muvofiq qurshovda qo‘llash me‘yor va qonun-qoidalari nazarda tutiladi. Masalan, o‘zbek tilida odam boshi old tomonining peshonadan iyak va chakkagacha bo‘lgan qismini atovchi (*yuz*), (*bet*), (*bashara*), (*turq*), (*angor*) hamda (*yuz*), (*chehra*), (*oraz*), (*uzor*) kabi shu narsa (mazkur denotat)ni hamda unga nisbatan so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi leksemalar sirasi mavjud bo‘lib, so‘zlovchi o‘z nutq malakasi, maqsadi, ehtiyoji hamda nutq sharoiti va tinglovchining xususiyatlariga mos ravishda ulardan zarurini, deylik, (*yuz*) leksemasini tanlaydi. Mazkur paradigmadan [*yuz*] leksemasining tanlanishi, avvalo, lisoniy tizimning leksik-semantik va stilistik sathlarining hamkorligi asosida amalga oshiriladi¹.

Jahon tilshunosligida tarjima nazariyasi va u bilan bog‘liq masalalar har doim lingvist va tarjimonlarning e‘tiborida bo‘lgan. Tarjima va lingvistika, tarjimaning muhim xususiyatlari, talablari, prinsplari to‘g‘risida L.S.Barxurdarov², A.D.Shveyteyr, V.N.Komissarov o‘z tadqiqot ishlarida keltirib o‘tishadi.

Tarjima lug‘atlarida so‘zlararo leksik-semantik munosabat turlaridan sinonimiya va omonimiya hodisalariga alohida ahamiyat berishgan va tarjimalarda, asosan, shu ikkita munosabat asosida so‘zning muqobili tanlangan. Sinonimik va omonimik munosabatlarni ifodalovchi leksemalarning

1 Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатхлараро муносабатлар. Филология фанлари доктори диссертацияси. – Бухоро, 2001. – 15 б.

2 Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. М.: ЛКИ, 2008. 240 с.



o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday leksemalar alohida denotativ ma’noga ega bo‘ladi va o‘z qatoriga ega bo‘lmasa-da, o‘z qatoridan vakil bo‘lmasa-da, shu hodisaga tegishli ekanligi sezilib turadi. Antonimik va paronimik munosabatlarda esa biror bir leksemaning jufti bo‘lmasa, shu hodisaga tegishli yekanligini anglash mushkul. Shu nuqtai nazardan ham tarjima lug‘atlarda so‘zlarning tarjimaviy izohida sinonimik va omonimik munosabatlar o‘rin egallagan.

Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha tarjima lug‘atlarida, nafaqat tarjima, balki boshqa turkum lug‘atlarda ham so‘zlararo leksik-semantik munosabat turlari aks etgan bo‘ladi. Tarjima lug‘atlarida esa sinonim va omonimlar eng ko‘p o‘rinni egallaydi, hamda lug‘atlarning kirish qismida, lug‘atdan foydalanish qismida sinonimlar va omonimlarga alohida to‘xtalinadi va omonimlar rim yoki arab raqamlari ostida berilishi haqida ko‘rsatmalar beriladi.

Istiqlol yillarida yuz bergan katta o‘zgarish va rivojlanishlardan so‘ng mamlakatimizda ingliz tili ta’limi ancha yuqori saviyaga ko‘tarildi. Ushbu yaratilgan lug‘atning asosiy maqsadlaridan biri o‘zbek va ingliz tillarida vujudga kelgan o‘zgarishlarni ko‘rsatib berish, ayrim so‘zlarning ma’nolarini so‘z birikmasi yoki iboralar tarzidagi illyustrativ materiallar bilan kengroq yoritib berishga qaratilgan. Bu lug‘atning hajmini biroz kattalashtirsa-da, ammo zamon talabi darajasiga mos keladi¹.

Lug‘at so‘zboshi qismida keltirilgan ushbu holat yuzasidan tahlillar o‘tkazilganda, lug‘atda illyustrativ misollar keltirilmaganining guvohi bo‘lindi. Illyustrativ misollar ba’zi tarjima lug‘atlarida so‘zning ma’nosi yanada oydinlashtirilishi zarur bo‘lsa yoki so‘zni qaysi vaziyatda qo‘llash lozimligi ko‘rsatilishi shart bo‘lsa, o‘sha holdagina illyustrativ misollar keltiriladi. Asosan, ikki yoki bir necha tilli so‘zlashgich lug‘atlarda xuddi shunday materiallardan foydalaniladi. Biroq illyustratsiyalar uchun badiiy adabiyot yoki jurnal, OAV ma’lumotlari asosida emas, erkin holda tuzilgan jumlar tanlanadi.

Tarjima qilinayotgan va tarjima uchun tanlayotgan so‘z bir-biriga, albatta, har jihat jihatdan mos bo‘lmog‘i lozim. Tarjima uchun tanlanayotgan sinonimlar esa tarjima qilinuvchi so‘zning qanday semasi ekanligiga qarab tanlashi va shunga asosan lug‘atlarni shakllantirish maqsadga muvofiq. Chunki sinonimlar masalasi har doim tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan. Hamda u anglatgan denotativ, konnotativ, funksional semalari tarjima lug‘ati uchun asos vazifasini bajarishi va sinonimiya turlari mezon sifatida qabul qilinishi shart.

Demak, Yuqoridagilardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Tarjima lug‘atlarida sinonimlarni tanlash uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tarjima uchun tanlanayotgan so‘zning sinonimik qatori va sinonimik qator a’zolarining semalari tahlil qilinadi, ajratib chiqiladi;
2. Tarjima uchun tanlanayotgan so‘zning sinonimik qatori aniqlanadi;
3. Tarjima uchun tanlanayotgan so‘zning darajalanish xususiyati aniqlanadi.

Tarjima uchun sinonimlardan birini tanlash yoki bir nechasini tanlash uchun aniqlangan bosqichlarni inglizcha-o‘zbekcha tarjima lug‘ati asosida tahlil qilamiz:

Dastavval, so‘zning turkumi aniqlanadi, undan so‘ng unga mos tushuvchi sinonimik qator tekshiriladi. Sinonimik qatorni tekshirish uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” va darajalanish xususiyatini aniqlash uchun “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati”dan foydalanamiz.

Tarjima uchun tanlangan so‘z – *face*;

So‘zning tarjimasi uchun tanlangan sema – denotativ (1 Odam boshining old tomoni, old tomondan ko‘rinishi; bet). Inson boshining old tomonida peshonadan iyakkacha bo‘lgan ikki quloq orasida joylashgan qismi.

So‘zning tarjimasi uchun tanlangan sinonim qator – *yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor*.

So‘zning tarjimasi uchun tanlangan darajalanish qatori – *aft, bet, bashara, yuz, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor*.

Bosqichlar bajarilgan so‘ng, tahliliy yondashuvga o‘tiladi. Tahliliy yondashuvda so‘zning tarjimaviy izohi uchun tanlanayotgan so‘z yuqoridagi bosqichlar asosida aniqlanadi.

Sh.Bo‘tayevev va A.Irisqulov muallifligi ostida nashr qilingan tarjima lug‘atida *face* so‘ziga quyidagi tarjimalar keltirilgan:

Face – n. 1) yuz, aft, qiyofa; 2) yuz ifodasi; chehrasida aks etgan belgi; va boshqa so‘zlar bilan

1 Bo‘tayevev Sh., Irisqulov I. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary. – Toshkent, “Fan”. 2009.



birikib kelingan holatlari aks etgan. Tarjimalardan ko‘rinib turibdiki, *yuz*, *aft*, *qiyofa* tarjimasidagi qiyofa so‘zi ortiqcha, chunki keyingi tarjimada (boshqa ma‘nosida) yuz ifodasi ya‘ni qiyofasi haqida ketmoqda.

Tarjima uchun asosiy tanlanishi kerak bo‘lgan sinonimlar *yuz* va *bet* so‘zlaridir. *Face* so‘zining turli o‘rinlarda ko‘proq salbiylik bo‘yog‘i kuchli bo‘lganligi sababli asosiy bosh so‘z va salbiylik bo‘yog‘ini bildiruvchi sinonimlardan biri tanlanishi yetarli.

Tarjima lug‘atlarida leksik sinonimlarning tanlanishi bilan bog‘liq masala tarjima qilinayotgan tilning sinonimik so‘zlar bazasi orqali amalga oshirilishi zarur. Shu tildagi sinonim leksemalarning mukammal lug‘ati yaratilgan bo‘lsa, tarjima jarayonida tushunarsiz o‘rinlar uchrashi kamayadi va lug‘atdan foydalanuvchida so‘zning tarjimasi bilan bog‘liq noto‘g‘ri xulosa paydo bo‘lmaydi. Aks holda tilni o‘zlashtirish jarayoni murakkablashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bo‘tayev Sh., Irisqulov I. English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary. – Toshkent, “Fan”. 2009.
2. Бархударов Л.С. Язык и перевод: вопросы общей и частной теории перевода. М.: ЛКИ, 2008. 240 с.
3. Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар. Филология фанлари доктори диссертацияси. – Бухоро, 2001. – 15 б.



OILA NUTQIDA MAQOLLARNING ROLI

Turayeva Jumagul Ibragim qizi

TerDU Lingvistika: o'zbek tili 1-bosqich magistranti

Tel: +99899-121-56-88

suvanovesaanboy@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila nutqida foydalanadigan maqollarning roli va ahamiyati haqida. Maqollardan foydalanishda o'rinli, bola tarbiyasiga mos ravishda so'zlarni ishlatish to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mehr-muhabbat, o'rin, pragmatika, hurmat, majburiyat, lison.

Oila-jamiyatning eng kichik va uni tashkil etadigan bir bo'g'im sanaladi. Oilada ota-fayz-u baraka, ibrat timsoli, Ona-mehr-u muhabbat, tarbiya o'chog'i, farzand esa go'zal tarbiya merosxo'ridir. Oilada nuroniy bobo va buvilarning borligi esa to'kin-sochinlik, shod-u xurramlik, o'zaro hurmat va totuvlikni mustahkamlaydi. Bunday oila totuv oila hisoblanadi. Totuv oila-jamiyat tayanchidir.

Bizga ma'lumki, konstitutsiyamizda ham oila nikoh to'g'risida bir qancha qonunlar belgilab qo'yilgan. Jumladan, "oila a'zolarining o'z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o'z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a'zolari va o'zga shaxslarning huquqlari erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart.

Oilani saqlab qolish va uni mustahkam darajada asrab-avaylash ikki shaxsning (ayol-erkak) imkoniyati, saviyasi, mas'uliyatiga bo'g'liq. Oilada shunday pragmatik vaziyatlar bo'ladiki, unda har bir inson lisoniy bilim va qobiliyatiga tayangan holda mental fikrlab vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Azal-azaldan sharq millatining oilaviy qadriyati, an'anasi, urf-odati jamiyki barcha-barchasi boshqalar uchun andaza vazifasini ado etib kelmoqda. Bunda bizning tajribali, bobo-buvilarimizning roli beqiyosdir.

